

**MAMLAKATIMIZDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA  
OSHIRISHDA TA'LIM-TARBIYA AHAMIYATI**

**Abdullayeva Muyassarxon Salohiddinovna**

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi, 3-darajali yurist.

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.11113209>**

**Annotatsiya.** mazkur maqolada mamlakatimizda yoshlar qaratilayotgan e'tibor, davlatning yoshlarga oid olib borayotgan siyosatining muhim yo'nalishlarini belgilab bergen qonunchilik, ta'limdi davlat tomonidan boshqarish organlarining va ta'limga muassasalarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari, ta'limga tarbiyaning ahamiyati kabi masalalarda fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, davlat siyosati, ta'limga tarbiya, boshqarish organlari, ta'limga muassasalar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ПРЕДУСМАТРИВАЮЩУЮ  
УГОЛОВНУЮ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ЛЕГАЛИЗАЦИЮ ДОХОДОВ,  
ПОЛУЧЕННЫХ ОТ ПРЕСТУПНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются такие вопросы, как внимание, уделяемое молодежи в нашей стране, законодательство, определяющее важнейшие направления государственной молодежной политики, полномочия органов государственного управления образованием и образовательных учреждений в области государственной молодежной политики, важность образования и воспитания.

**Ключевые слова:** молодежь, государственная политика, образование, органы управления, образовательные учреждения, правосознание, правовая культура.

**IMPROVING LEGISLATION PROVIDING CRIMINAL LIABILITY FOR  
LAUNDERING PROCEEDS FROM CRIMINAL ACTIVITIES.**

**Abstract.** This article will focus on issues such as the focus on youth in our country, legislation that has determined the important directions of the state's youth policy, the competence of the state governing bodies of education and educational institutions in the field of youth public policy, the importance of education and education.

**Key words:** Youth, Public Policy, Education, governing bodies, educational institutions, legal consciousness, legal culture.

Bugungi kunda yurtimizda yoshlarlarga, ayniqsa, ularning ta'limga tarbiyasiga qaratilayotgan e'tibor beqiyos ekanligini, qabul qilinayotgan qonunlar, Prezident va hukumat qarorlari hamda amalga oshirilayotgan islohotlar misolida guvohi bo'lib turibmiz.

Yurtbosimizning bu ishlarning boshida turib: "...biz O'zbekistonda olib borayotgan demokratik islohotlarimiz jarayonida ta'limga tizimini zamонавиyl talablar darajasiga ko'tarishga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. ...biz o'zimizning milliy tajribamiz va jahondagi ilg'or yutuqlarni uyg'unlashtirgan holda faoliyat olib boramiz", "Barchamizga ayonki, ta'limga va tarbiya

bor joyda albatta ilm, albatta madaniyat va taraqqiyot bo‘ladi”,<sup>1</sup> - degan fikrlarini alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

Yoshlarga oid davlat siyosati borasida qabul qilingan davlat dasturilar, xususan O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi 2016-yil 14-sentyabrdagi O‘RQ-406-son Qonuni o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunga ko‘ra, biz yoshlar deganda o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslarni tushunishimiz lozim. Mazkur qonunda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, ulardan ba’zilarini, ya’ni yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish; yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash; yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish; iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish kabi yo‘nalishlarni yodga olib o‘tishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. O‘zbekiston Respublikasida “Yoshlarga oid davlat siyosati — davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi”<sup>2</sup> dan iboratdir.

Mazkur maqlada fikr yuritmoqchi bo‘lganimiz yoshlarning ta’lim-tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarda ushbu qonun orqali ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlarining va ta’lim muassasalarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari belgilab berildi. Demak, ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalarini ushbu sohada:

- yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;
- ta’lim sifatini oshirishga, malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni va boshqa hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- manfaatdor organlar va muassasalar bilan birgalikda o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliv ta’lim muassasalarini bitiruvchilari bandligining tahlilini amalga oshiradi hamda uning natijalari asosida ta’lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;
- yoshlarning ta’limi va tarbiyasi sifatini oshirish, o‘quv jarayoniga ta’limning zamonaviy shakllari va usullarini joriy etish chora-tadbirlarini ko‘radi;
- ta’lim muassasalarida yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni ta’minlash maqsadida sport seksiyalari, fan, texnika to‘garaklari va ijodiy to‘garaklar, klublar tashkil etadi;
- yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, shuningdek ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga doir faoliyatda ishtirok etadi;
- imkoniyati cheklangan yoshlarga ijtimoiy-psixologik va pedagogik yordam ko‘rsatadi;
- yosh fuqarolarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘radi;
- yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagи bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/5696>.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi 2016 yil 14 sentyabrdagi O‘RQ-406-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/3026246>.

Yuqorida bildirilgan fikrlar hamda qonunchilik me'yorlaridan ham ko'riniib turibdiki, davlatimizning har tomonlama rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin olishi, ilm-fan taraqqiy etgan, yuksak salohiyatga aylanishida mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasining ahamiyati dolzarbdir. Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta'lim-tarbiya jarayoni qayta ko'rib chiqilib, uni rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi.

Jumladan “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishi ta’limni tubdan isloq qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini berdi<sup>3</sup>. So‘nggi yillarda ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va modernizatsiya qilish bo‘yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Xususan, ta’lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi. Mazkur qonun qabul qilinishi bilan 1997 yil 29 avgustdag“Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlar o‘z kuchini yo‘qotdi.

Ma’lumki, ta’lim tizimi mamlakatlarning rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning pirovard natijasi, o’sha davlatning ta’lim tizimini rivojlantirishga va uni takomillashtirib borishga berilayotgan ahamiyat bilan belgilanadi. Zero, barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ma’lum ma’noda ta’lim sohasiga ham tegishlidir.

Yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasi xususida so‘z yuritganda, davlatimiz rahbarining yuksak ma’naviyatli, barkamol avlodni yangicha va mustaqil fikrlaydigan, o‘z haq-huquqini taniydigan va buning uchun kurashadigan; mas’uliyatli, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, imkoniyatlarini ishga sola biladigan; tashabbuskorlik, atrofida sodir bo‘layotgan voqeahodisalarga mustaqil munosabat bildira oladagan; vatanparvar, shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg‘un ko‘radigan va shu asosda faoliyat yuritadigan fazilatlarga ega qilib tarbiyalash lozimligi haqidagi fikrlariga tayanish muhim deb hisoblaymiz.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/5696>.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi 2016 yil 14 sentyabrdagi O‘RQ-406-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/3026246>.
4. Z.Abdurahmonova. Zamonaviy o‘qituvchining shaxsiy kompetensiyasini shakllantirish muammolari. Zamonaviy ta’lim / sovremennoye obrazovaniye 2016, 55-b.

<sup>3</sup> Z.Abdurahmonova. Zamonaviy o‘qituvchining shaxsiy kompetensiyasini shakllantirish muammolari. Zamonaviy ta’lim / sovremennoye obrazovaniye 2016, 5. 55-b.